

## MIFOLOGIK TAFAKKURNING XALQ DOSTONLARIDA AKS ETISHI

**Yakubov Baxtiyor Saydullayevich,**  
Toshkent amaliy fanlar universiteti, magistr

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada mifologik tafakkurning o'ziga xos xususiyatlari va uning xalq dostonlarida aks etish shakllari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Xalq og'zaki ijodining muhim janrlaridan biri bo'lgan dostonlarda mifologik obrazlar, ramziy motivlar hamda qadimiy e'tiqodlar ifodasi keng yoritilgan. Tadqiqot jarayonida mif va folklor o'rtasidagi uzviy bog'liqlik, qahramonlar xarakterida namoyon bo'ladigan arxaik tasavvurlar, shuningdek, tabiat va jamiyat haqidagi qadimgi qarashlarning badiiy talqini ko'rib chiqiladi. Shuningdek, maqolada mifologik tafakkurning doston syujeti va kompozitsiyasiga ta'siri misollar asosida ochib beriladi.

**Kalit so'zlar:** mif, mifologik tafakkur, xalq dostoni, folklor, mifologik obraz, motiv, arxaik tasavvur, ramz, e'tiqod, syujet, badiiy talqin.

**Аннотация.** В данной статье научно-теоретически анализируются особенности мифологического мышления и формы его отражения в народных эпосах. В эпосах, являющихся важным жанром устного народного творчества, широко освещаются мифологические образы, символические мотивы и древние верования. В ходе исследования рассматривается органическая связь мифа и фольклора, архаические представления, проявляющиеся в характерах героев, а также художественная интерпретация древних взглядов на природу и общество. Кроме того, на основе примеров раскрывается влияние мифологического мышления на сюжет и композицию эпических произведений.

**Ключевые слова:** миф, мифологическое мышление, народный эпос, фольклор, мифологический образ, мотив, архаические представления, символ, верование, сюжет, художественная интерпретация.

**Annotation.** This article provides a theoretical analysis of the specific features of mythological thinking and its reflection in folk epics. Epics, as an important genre of oral folklore, vividly represent mythological images, symbolic motifs, and ancient beliefs. The study examines the intrinsic relationship between myth and folklore, archaic concepts reflected in the characters of heroes, and the artistic interpretation of ancient views on nature and society. Furthermore, the article reveals the influence of mythological thinking on the plot and composition of epic works through illustrative examples.

**Keywords:** myth, mythological thinking, folk epic, folklore, mythological image, motif, archaic concept, symbol, belief, plot, artistic interpretation.

**Kirish va dolzarbligi.** Mifologik tafakkur insoniyat tafakkurining eng qadimiy qatlamlaridan biri sifatida xalqning dunyoqarashi, e'tiqodi va ma'naviy qadriyatlarini aks ettiruvchi muhim hodisa hisoblanadi. U ibtidoiy jamiyat davridayoq shakllanib, insonning borliqni anglash, tabiat hodisalarini izohlash va o'z o'rnini belgilash ehtiyojlari bilan chambarchas bog'liq holda rivojlangan. Aynan shu tafakkur shakli keyinchalik xalq og'zaki ijodi, xususan, epik janrlarda o'zining badiiy ifodasini topgan.

Xalq dostonlari esa milliy madaniyatning muhim tarkibiy qismi bo'lib, ularda nafaqat tarixiy voqealar va qahramonlik motivlari, balki qadimgi mifologik tasavvurlar ham o'z aksini topadi. Dostonlarda uchraydigan g'ayritabiiy obrazlar, ramziy motivlar va sehrli voqealar tizimi mifologik tafakkurning bevosita mahsuli sifatida qaraladi. Shu bois ushbu janrni o'rganish orqali qadimgi insonning dunyoqarashi, e'tiqodi va estetik qarashlari haqida muhim ilmiy xulosalarga kelish mumkin.

Hozirgi globallashuv sharoitida milliy o'zlikni anglash va ma'naviy merosni asrab-avaylash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Xalq dostonlarida aks etgan mifologik tafakkurni ilmiy asosda o'rganish esa ushbu merosning mazmun-mohiyatini chuqurroq anglashga xizmat qiladi. Ayniqsa, mifologik obrazlar va motivlarning epik asarlardagi funksiyasini tahlil qilish orqali xalq tafakkurining tarixiy taraqqiyot bosqichlarini aniqlash, qadimgi e'tiqodlar va axloqiy qadriyatlarning shakllanish jarayonini yoritish mumkin.

**Metodlar va o'rganilish darajasi.** Mazkur tadqiqotda mifologik tafakkurning xalq dostonlarida aks etishini o'rganishda bir qator ilmiy metodlardan foydalanildi. Jumladan, tahliliy (analitik) metod asosida doston matnlaridagi mifologik obrazlar, motivlar va syujet unsurlari chuqur o'rganildi. Qiyosiy-tarixiy metod yordamida esa turli xalqlar epik ijodida uchraydigan o'xshash mifologik elementlar solishtirilib, ularning umumiy va milliy xususiyatlari aniqlashtirildi. Shuningdek, struktural-semantik yondashuv orqali dostonlardagi mifologik tasavvurlar tizimi, obrazlararo munosabat va ularning badiiy funksiyasi tahlil qilindi.

Tadqiqot jarayonida folklorshunoslik, adabiyotshunoslik hamda madaniyatshunoslik fanlari doirasida ishlab chiqilgan nazariy qarashlar asos qilib olindi. Xususan, mif, mifologik tafakkur, motiv va obraz tushunchalariga oid ilmiy manbalar tahlil etilib, ular asosida muammoning nazariy asoslari shakllantirildi.

Mavzuning o'rganilish darajasiga to'xtaladigan bo'lsak, mifologiya va folklor o'rtasidagi munosabatlar ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Jahon ilm-fanida mifologik tafakkur masalalari, asosan, antropologiya va strukturalizm doirasida keng o'rganilgan bo'lib, bu borada turli nazariy yondashuvlar shakllangan. O'zbek folklorshunosligida ham xalq og'zaki ijodi, xususan, dostonlar tarkibidagi mifologik elementlar yuzasidan muayyan tadqiqotlar olib borilgan.

**Tadqiqot natijalari.** Mifologik tafakkur xalq og'zaki ijodida motivlar tizimi orqali ham namoyon bo'ladi. Masalan, mo'jizaviy tug'ilish, sehrli yordamchilar, sinovdan o'tish, yovuz kuchni yengish kabi motivlar turli janrlarda takrorlanib, umumiy badiiy tizimni tashkil etadi. Bu motivlar qadimgi mifologik tasavvurlarning folklor shaklida davom etayotganligini ko'rsatadi.

Har bir xalqning milliy o'zligini anglash ma'naviy merosini o'rganishdan boshlanadi. Sharq xalqlarining ma'naviy merosi esa azaldan chuqur axloqiy qadriyatlar bilan yo'g'rilgan. "Vafo ham sadoqat, poklikni kuylash Sharq adabiyotida qadim-qadimlardan davom etib kelayotgan muqaddas mavzulardan biridir. Sharqning buyuk shoirlari bu g'oyalarni turli janrlarda g'oyat ehtiros va so'nmas ixlos bilan tasvirlaganlar. Bu mustahkam axloqiy kodeks xalqlarimiz turmushiga, ongiga singib, katta ijtimoiy ma'no kasb etib keldi", – deb yozgan sharqshunos olim Najmiddin Komilov[1; 58-bet.].

Darhaqiqat, jasorat, saxovat, mardlik, vafo, sadoqat, halollik va fidoiylik kabi axloqiy qadriyatlar badiiy tafakkurning eng qadimiy shakllaridan biri hisoblangan epik asarlarda o'zining dastlabki ifodasini topgan. Ayniqsa, folklorshunoslik doirasida o'rganiladigan

xalq dostonlari va boshqa epik janrlarda bu fazilatlar qahramonlar obrazi, ularning xatti-harakatlari hamda syujet rivoji orqali badiiy talqin etilgan.

Bunday asarlarda axloqiy ideal sifatida tasvirlangan qahramonlar nafaqat jismoniy kuchi, balki ma'naviy pokligi, vafodorligi va adolatparvarligi bilan ajralib turadi. Shu jihatdan epik ijod namunalari xalqning qadimiy dunyoqarashi, e'tiqodi va mifologiya bilan bog'liq tasavvurlarini aks ettiruvchi muhim manba sifatida namoyon bo'ladi.

Ma'lumki, epos xalqning qahramonona o'tmishini, orzu-umidlarini bayon etuvchi og'zaki yoki yozma shakldagi badiiy asar hisoblanadi. Bunday asarlar tarixiy taraqqiyot jarayonida takomillashib, dastlabki sodda shakllardan rivojlangan holda she'riy va nasriy yo'lda mukammal badiiy tizimga ega asarlarga aylangan.

Lirik asarlarda voqelik asosan lirik qahramon yoki muallifning ichki kechinmalari, his-hayajonlari orqali ifodalansa, epik asarlarda tasvir kengroq qamrovga ega bo'lib, unda voqelik ijodkorning estetik ideali va dunyoqarashi asosida bayon etiladi. Shu jihatdan epik asarlar jamiyat hayoti, tarixiy voqealar hamda insoniy fazilatlarini umumlashtirilgan va badiiy mukammal shaklda aks ettiradi.

Epik asarlarning asosini qadimgi asotiriy tafakkur – mif (afsona)lar tashkil etgan. Mifologiya – miflarni o'rganuvchi ijtimoiy ong shakllaridan biri va kishilarning tabiiy va ijtimoiy hodisalarning mohiyatini anglashda ilk bosqich hisoblanadi. “Asotir tafakkur (afsonaviy fikrlash), – deb yozadi sharqshunos faylasuf Muhammadjon Qodirov, – insonning dunyoga va bilvosita ijtimoiy munosabatlarga bo'lgan munosabatini muayyan butunlikda ifodalash shakllaridan biridir. U garchi xayoliy bo'lsa ham, bu dunyoning paydo bo'lishi, tabiiy tartibning ma'nosi haqidagi savolga berilgan birinchi javobdir” [2; 45–bet.]. Shu tariqa mifologiyaga xos asotiriy tafakkur insoniyatning o'zligini anglashga qaratilgan eng dastlabki ongiy shakllardan biri sifatida shakllandi.

Ibtidoiy jamoa davrida dunyo asosan mifologik obrazlar orqali idrok etilgan. Qadimgi inson o'zini o'rab turgan borliqni ko'pincha qarama-qarshi kuchlarga — do'st va dushman, yaxshilik va yomonlik, yorug'lik va zulmat kabi toifalarga ajratib tasavvur qilgan. Bunday dualistik qarashlar mifologiyaga xos bo'lib, o'zining badiiy ifodasini afsona, rivoyat, ertak va epos kabi janrlarda topgan.

Mazkur asarlarda tabiat va jamiyat hodisalari, shuningdek, g'ayritabiiy voqealar dev, ajdaho, afsonaviy qushlar, bahaybat hayvonlar singari obrazlar orqali umumlashtirilib tasvirlangan. Bu obrazlar nafaqat qadimgi insonning ojizligi va qo'rquvlarini, balki uning jasorati, matonati va qahramonlik ruhini ham ifoda etadi.

Ayniqsa, bunday asotiriy tafakkur mahsullarida ezgulikning yovuzlik ustidan, yorug'likning zulmat ustidan g'alaba qozonishiga bo'lgan qat'iy ishonch yetakchi g'oya sifatida namoyon bo'ladi. Shu orqali qadimgi insonlarning olijanob maqsadlari, ideal qarashlari va ma'naviy intilishlari badiiy shaklda aks ettiriladi.

Dunyoni asotir tafakkur orqali tasvirlash diniy tasavvurlar bilan bog'liq bo'lib, tabiat kuchlarini shaxslar faoliyati bilan ifodalashdir. Ammo u tabiat va inson jamiyati haqidagi

asrlar davomida to'plangan bilimlar majmuasi sifatida namoyon bo'lgan. Mantiqiy fikrlashga asoslangan falsafagina inson tafakkurini afsonaviy an'analar va uni bevosita hissiy taassurotlarga bog'lab qo'ygan zanjirlardan xalos qilish imkoniyatini berdi. Shu jihatdan epik asarlar ularning yaratilgan davriga qarab, qahramonlarning nomlari saqlanib qolsa-da, hodisalar bayonida mantiqiylik ustivorlik qilib bordi. Shunga ko'ra, jamiyat rivojlanishi bilan uning syujetlari ham hayot talablari asosida asta-sekin o'zgarib bordi. Bu jarayonning mohiyati professor Muhammadjon Imomnazarovning quyidagi fikrlarida o'zining aniq ifodasini topgan: "insoniyat ma'naviy takomilining ilk davri – ibtidoiy jamoa va qadimgi dunyo asosan asotir tafakkurga tayanadi. Tom ma'nodagi badiiy adabiyot bizning mintaqada faqat Qur'oni karim nozil bo'lishidan bir oz oldin paydo bo'la boshladi...Islom ma'rifatchiligi boqichining mohiyati shundaki X–XI asrlarda yashab o'tgan ulug' qomusiy allomalarimiz islomgacha insoniyat hosil qilgan barcha bilimlarni qiyosiy tadqiq etib, insoniyat anglab yetgan barcha mavjud bilimlar mohiyatan Tavhid e'tiqodiga muvofiq ekanligiga amin bo'ldilar.... Inson ma'naviy takomilidagi bu inqilobiy o'zgarish natijasida insoniyat Ibtidoiy jamoa, qisman Qadimgi dunyo va O'rta asrlar odamning asosiy fikrlash tarzi bo'lmish asotir tafakkur darajasidan yuqori ko'tarilib, mantiqiy tafakkur (ya'ni sabab-oqibat bog'lanishlari asosida fikr yuritish), timsoliy tafakkur (ya'ni, o'z qarashlarini ramz va timsollar vositali ifodolash), tarixiy tafakkur (turli manbalar orqali aniqlangan ma'lumotlarga tayanib xulosalar qilish) kabi hozirgi zamonning asosiy tafakkur turlari va ular asosida qator murakkab tarkibli tafakkur turlari (ilmiy tafakkur, badiiy tafakkur va h.k.) mukammal shakllana boshladi" [3; 11-bet.].

Insoniyat tarixidan ma'lumki, qadimdan turli xalqlar va elatlar o'zlarining epik qahramonlari orqali ezgu orzu-umidlari va ideal qarashlarini ifoda etib kelgan. Bu qahramonlar obrazida insonning tabiatga, jamiyatga va umuman borliqqa munosabatida axloqiy qadriyatlarining ustuvorligi yaqqol namoyon bo'ladi. Shu jihatdan epik asarlar nafaqat badiiy-estetik hodisa, balki jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi muhim ma'naviy vosita vazifasini ham bajargan.

Xususan, Markaziy Osiyo va Eron xalqlarining eng qadimiy yozma manbalaridan biri — Avestoda insoniyatning farovon hayot, poklik, rostlik, mehnatsevarlik va ahillik haqidagi qarashlari keng yoritilgan. Ushbu manbada yaxshilik va yomonlik, nur va zulmat o'rtasidagi abadiy kurash tasvirlanib, "yaxshi fikr, yaxshi so'z, yaxshi amal" tamoyilining ustuvorligi ta'kidlanadi. Bu esa qadimgi inson tafakkurida axloqiy idealning markaziy o'rin egallaganini ko'rsatadi.

Shuningdek, qadimgi mifologik tasavvurlarda baxt va baxtsizlik, yorug'lik va zulmat kabi qarama-qarshi tushunchalar asosida "baxt o'lkasi" va "baxtsizlik o'lkasi" haqidagi obrazli qarashlar shakllangan. Bu g'oyalar keyinchalik nafaqat adabiyot, balki falsafiy tafakkur rivojiga ham kuchli ta'sir ko'rsatgan. Masalan, Platoning ideal davlat haqidagi qarashlari hamda Al-Farabining "fozil shahar" konsepsiyasida ushbu qadimiy tasavvurlar aks etganini ko'rish mumkin.

Tadqiqotchilar ta'kidlaganidek, Zardushtiylik g'oyalari Turon, Eron va Yunon xalqlari tafakkuriga chuqur singib, poklik va rostgo'ylikka asoslangan ijtimoiy-axloqiy tizimning shakllanishiga zamin yaratgan. Bu jarayon natijasida insoniyat tafakkurida dunyoni yangicha anglash, yaratuvchanlik va ezgulik sari intilish g'oyalari mustahkam qaror topgan.

O'zining g'oyaviy-badiiy mukammalligi va chuqur insonparvarlik yo'nalishi bilan ajralib turadigan epik asarlar jahon madaniy merosining eng muhim qatlamini tashkil etadi. Bunday eposlar qatoriga shumerlarning Gilgamesh dostoni, yunon adabiyotida Homer yaratgan Iliada va Odissey, hind adabiyotidagi Mahabharata hamda Ramayana, shuningdek Kalila va Dimna kabi asarlar kiradi.

Markaziy Osiyo xalqlarining boy epik merosida esa Go'ro'g'li, Alpomish, Manas, Qirg'iz kabi dostonlar alohida o'rin tutadi. Shuningdek, Kayumars, Jamshid, To'maris, Siyovush, Rustam kabi obrazlar ham epik tafakkurda muhim o'rin egallaydi.

**Xulosalar.** Olib borilgan tadqiqotlar natijasida mifologik tafakkur xalq dostonlarining shakllanishi va rivojlanishida muhim asosiy qatlamlardan biri ekanligi aniqlandi. U qadimgi insonning borliqni anglashga bo'lgan ilk urinishlari, tabiat va jamiyat haqidagi tasavvurlari hamda e'tiqodlarini o'zida mujassam etgan holda epik ijodda badiiy shaklga kirgan.

Xalq dostonlarida mifologik tafakkur g'ayritabiiy obrazlar, ramziy motivlar va syujet tizimi orqali ifodalanib, ezgulik va yovuzlik, yorug'lik va zulmat o'rtasidagi abadiy kurash g'oyasini ilgari suradi. Bu esa qadimgi insonning dualistik dunyoqarashi epik asarlarda badiiy talqin etilganini ko'rsatadi.

Shuningdek, dostonlarda uchraydigan mo'jizaviy tug'ilish, sinovdan o'tish, sehrli yordamchilar kabi motivlar mifologik tafakkurning davomiyligini ta'minlab, xalq og'zaki ijodining uzviy va barqaror tizimini shakllantiradi. Bu motivlar orqali xalqning tarixiy xotirasi, ma'naviy qadriyatlari va estetik ideallari avloddan avlodga yetkazib kelinadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Komilov N. Tafakkur karvonlari. –T.,2011.B.58.
2. Qodirov M. Markaziy Osiyo, Yaqin va O'rta Sharqning falsafiy tafakkuri (o'rta asrlar). –T.TDShI, 2010.
3. Imomnazarov M. Adabiyot va ma'naviyat. (Mintaqa mumtoz adabiyotining ijtimoiy mavqei haqida).//Xorijiy Sharq xalqlari adabiyoti va adabiy manbashunosligining dolzarb masalalari.Xalqaro anjuman materiallari. –T.,2010. –B.11.